



Ergashev Samandar Inomjon o'g'li

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mehanizatsiyalash muhandislari
institute” Milliy tadqiqot universitet 2-bosqich talabasi*

AJDODLAR IZI

Ajdodlar izlari yotar tuproqda,
Har qadami tarix — nurli saboqda.
Qilichlar jarangi, ilm ovozi,
Otash yuraklarning dilkash bir sozi

Temuriylar ruhi baland tog' kabi,
Ulug'bek yulduzi porlar tong kabi.
Ibn Sino hikmati dardlarga shifo,
Beruniy ilmiga orzu va da'vo.

Ularning yo'llari — bizga omonat,
Shu sabab muqimdir bizda matonat,
Ajdodlar nomiga bo'lib munosib,
Yurtni ko'kka ko'tarmoq qilg'usi nasib.

